



## TOMORQA VA DEHQON XO`JALIGI EKINLARIDA UCHRAYDIGAN O`SIMLIK SHIRA TURLARI

Dunyoda 4700 ga yaqin shira turlari (*Insecta: Homoptera: Aphididae*) uchraydi. Xalq orasida o`simlik bitlari nomi bilan mashhur bo`lib, o`simliklarning floema suyuqligini so`ruvchi kichik o`lchamdagi (*uzunligi 0,7 dan 7,0 mm gacha*) hasharotlar guruhini tashkil qiladi.



Er yuzida 1000 ga yaqin tur ekinlariga zarar yetkazadi. Litokoz partenogenetik (*majburiy partenogenez, bunda ona avlodlari faqat urg`ochi avlodlarni tug`adi*), nasl berish muddati qisqa, o`rtacha 10 kun.

Shiralarning ko`p turlari jinsiy va aseksual avlodlarning almashinishi va o`simliklarning o`zaro almashinishi bilan murakkab hayot sikllarini namoyish etadi. Shira ekinlarning zararkunandasi bo`lsada, ular bir qator parazitoidlar, yirtqichlar va boshqa ko`plab hasharotlar, shuningdek qushlar uchun juda muhim oziq-ovqat manbaidir.

O`simlik bitlari O`zbekistonning tomorqa va dehqon xo`jaligi ekinlarida uchraydigan zararkunanda hisoblanadi. Ob-havo harorati ushbu zararkunanda uchun qulay kelgan yillari katta iqtisodiy zarar yetkazishi kuzatiladi.

Tomorqa xo`jaliklarida bir nechta turdagi o`simlik bitlari uchrab zarar yetkazadi. Jumladan, katta g`o`za biti (*Acyrtosiphon gossypii Mordv.*), olma yashil biti (*Aphis pomi Deg.*) va karam biti (*Brevicoryne brassicae L.*) turlari keng tarqaladi.





Ushbu zararkunandalar dukkakli ekinlar, sabzavotlar va mevali daraxtlarni keng zararlaydi.

***Maqola muallifi***

*Rasul Jumayev*

*Qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor*